



**Alisher Navoiyning “Yor ogʻiz ochmasqa dardim soʻrgʻali
toptim sabab” gʻazalining badiiy tahlili**

Choriyev Nurbek Jumanazar oʻgʻli

Termiz davlat universiteti oʻzbek

filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gʻazal mulking sultoni Alisher Navoiyning “Yor oʻgiz ochmasqa dardim soʻrgʻali toptim sabab” gʻazali badiiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu gʻazalning maʼnaviy olami ham ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: Lirika, gʻazal, radif va undagi xillar, qofiya uning turlari, raviy, badiiy sanʼatlar, husni taʼlil, tanosub, tajohil ul-orif, tamsil, tashbeh, talmeh, mubolagʻa, ishtiyoq, taʼdid, takrir, nido.

Nafaqat oʻzbek xalqining, balki butun turkiy xalqlarning faxr-u iftixor koʻzgusi boʻlgan ulugʻ shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy oʻzidan kitobxonlar koʻnglini bir oʻqishdayoq zabt etadigan boqiy va durdona asarlar qoldirdi. Navoiy nafaqat sheʼriyatning sehrli olamida, balki falsafa, tarix, til va sanʼatda ham chuqur iz qoldirgan shaxs sanaladi. Uning ijodi va hayoti shu darajada oʻziga xos ediki, Navoiy shaxsiyati nafaqat zamonamizda, balki oʻz vaqtida ham koʻplab kishilarga ilhom bergan. Navoiy lirikasi oʻzining sheʼriy tuzilishi, naqshli ifodalari, tasvirlarining goʻzalligi bilan ajralib turadi. Lirika (yunoncha lyrics – lira joʻrligida kuylash) – badiiy adabiyotning asosiy turlaridan



biri bo`lib, biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida inson qalbida tug`ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg`ular orqali voqelikni aks ettiradi.

Yor og`iz ochmasqa dardim so`rg`ali toptim sabab,

Ko`p chuchukliktin yopishmishlar magar ul ikki lab.

Chayqalib go`yo tushar hayvon zuloli uzra mavj,

Iztirob ichra yuzungga solsa chin nogoh g`azab.

Ko`hi dard ichra meni Farhod agar qilding xitob,

Chun seni dermen chuchuk jonim erur Shirin laqab.

Buki ko`nglumni iting tishlarda og`zin qochurur,

Yo o`ti yoxud aning islang`ani erkin sabab.

Ishq komil elni yo Farhod, yo Majnun qilur

Gar erur ma`shuqi yoxud armaniy yoxud arab.

Eyki, faqr ichra qadam qo`yding talab vodusig`a,

Bo`lmasa tolib sanga matlub, sud etmas talab.

Shah xarimida necha topsang, Navoiy, ehtirom,

Bilgil o`z haddingni -yu behad rioyat qil adab.

Avvalambor, mumtoz adabiyotdagi g`azal tushunchasiga to`xtalib o`tamiz. G`azal (arabcha – g`azal, ko`pligi – g`azaliyot , ayollar bilan o`ynab kulish) – ishq-muhabbat haqida bahs yurituvchi lirik she`r – g`azal Sharq xalqlari lirikasida keng tarqalgan janr



bo`lib, u o`z taraqqiyotining dastlabki davrlarida faqat ishq-muhabbat mavzularida yaratilgan. Ammo keyingi davrlarda g`azalning mavzu doirasi kengayib borgan. Shu tariqa g`azal tematikasi insonning sof intim tuyg`ulari bilan birga ijtimoiy hayot muammolarini ham qamrab oladigan bo`lgan. “G`azalning mazmuni, g`oyaviy mundarijasi, obrazlar sistemasi, tematikasi har bir davrda o`zgarib borgan bo`lsa, uning formal xususiyatlari: vazni, qofiyalanish usuli, matla, maqtada taxallus qo`yish odati va boshqalarda katta o`zgarishlar ro`y bermadi. Biroq g`azal formasi qotib ham qolmadi, uning shakllari ko`paydi”, - deya o`z fikrlarini R.Orzibekov bildirgan .

G`azalni tahlil qilishdagi eng asosiy tushunchalardan biri bu uning qofiya turi va radifi sanaladi. Har bir g`azalda qofiyadosh so`zlar va ulardagi raviy mavud bo`lishi shart holatdir, ammo radif g`azal tarkibida bo`lishi ham mumkin yoki aksincha. Demak , radif bu g`azaldagi misralarning eng oxirida takrorlanuvchi bir xil so`z , so`z birikmasi yoxud gap bo`lishi mumkin. Radif tuzilishiga ko`ra , ikki turli bo`ladi : yig`iq va yoyiq. Yig`iq radifda qaytariluvchi birikma bitta so`zdan iborat bo`lishi kerak. Alqissa , maqolada tahlil etmoqchi bo`lgan Navoiy g`azalida aynan bir xil takrorlanuvchi so`zlar mavjud emas hamda u radifsiz g`azal sanaladi.

Endi “Qofiya“ tushunchasiga nazar tashlaymiz . Har bir g`azalda qofiyadosh so`zlar bo`lishi muqarrar. Qofiya – g`azalda radif mavjud bolsa, undan oldingi so`zlar, agar radifi yo`q bo`lsa, misralar oxiridagi vazndosh, ohangdosh so`zlar. Misol uchun, g`azaldagi “Sabab, lab, g`azab, laqab, sabab, arab, talab, adab “so`zlari qofiyadoshdir, sababi ular misralar oxiridagi vazndosh va ohangdosh so`zlardir. Har bir qofiyadosh so`zda “ raviy “ bo`lishi tabiiy. Raviy - arabcha “tirgak tovush“, ya`ni qofiyadosh so`zlarning asosini tashkil qiluvchi bir xil harflar.Raviy deyarli har doim so`z asosidagi eng oxirgi bir xil harf bo`ladi. “Sabab, lab, g`azab, laqab, sabab, arab, talab , adab “ bu so`zlar qatoridagi har bir asos aynan bitta harf bilan tugallangan, ya`ni raviy “B“ harfi hisoblanadi. Raviyning o`rniga



ko`ra, so`zlar mutlaq va muqayyad kabi ikki turga bo`linadi. Agar qofiyadosh so`zlar tarkibidagi raviydan keyin qo`shimcha kelsa, mutlaq qofiya, agar kelmasa va raviy bilan asos tugasa, muqayyad qofiya hisoblanadi. Misol uchun, “Sabab, lab, g`azab, laqab, sabab, arab, talab, adab“ so`zlaridagi raviydan keyin hech qanday qo`shimcha kelmagan hamda raviy bilan asos tugaganligi uchun ham muqayyad qofiya sanaymiz. Lekin qofiyadosh so`zlari: sevarim, jigarim, nuri basarim so`zlarida raviy, ya`ni “R“ tovushidan keyin “im” egalik qo`shimchasi kelganligi uchun ham bu mutlaq qofiyaga misol bo`la oladi.

Endigi navbat g`azalni tabdil (tarjima) qilish va undagi shr`riy san`atlarni aniqlash. Uni tarjima qilishda ehtiyot bo`lish darkor, chunki tarjima orqali ma`no, g`oya o`zgarib ketishi mumkin.

Yor og`iz ochmasqa dardim so`rg`ali toptim sabab,

Ko`p chuchukliktin yopishmishlar magar ul ikki lab.

Bu g`azalning birinchi bayti va u fanda matla deb ataladi. Tarjimasi: Yor mening ahvolimni so`ramayotganiga sabab topdim: uning ikkita labi g`oyat shirinligidan bir – biriga yopishib qolganmikan. Shu o`rinda badiiy san`atlar tushunchasini ham e`tirof qilishimiz lozim. Badiiy yoki she`riy san`atlar sharq mumtoz adabiyotining, shu jumladan, o`zbek adabiyotining o`ziga xosligi, milliyligi, latofati, nazokati, jozibadorligi va ta`sirchanligini ifodalovchi tasvir vositalaridir. Mumtoz adabiyotimiz badiiy san`atlarga boy: ular nihoaytda xilma-xil va nihoyatda nafis. Yuqoridagi baytda: husni ta`lil, tanosub, tajohil ul-orif she`riy san`atlari qatnashgan. Husni ta`lil (arabcha – chiroyli dalillash) – shoir o`zining birorta fikri va maqsadini asoslash uchun munosib dalil keltiradi. Bu dalil shoir bayon qilgan fikr uchun real bo`lolmaydi, balki uni quvvatlash uchun keltirilgan poetik dalil hisoblanadi va shu sabab shoirning muddaosi bilan to`g`ridan to`g`ri emas, balki tashbihiy yoki istioraviy yo`sinda bog`lanib, uning fikrini quvvatlaydi. Baytdagi



mashuqa labining shirinligidan yopishib qolishi haqiqiy hayotda bo`lmaydi va bu shoirona dalillash, ya'ni husni ta'lil hisoblanadi. Keyingi she'riy san'at tanosubdir. Tanosub (arabcha – bir-biriga munosib) – she'riyatimizda keng qo`llanib kelingan, ba'zan “mutanosib”, “tavfiq“, “iytilof” kabi atamalar bilan ham yuritilgan. Bunda shoir o`z baytida ma`nodosh tushunchalarni, chunonchi: oy va quyosh, o`q va yoy, qosh va ko`z, gul va lola va shularga o`xshaganlar birga mislarda ishtirok etadi .Birinchii baytdagi og`iz va lab so`zlari tanosub she'riy san`atini hosil qiladi. Keyingi qatnashgan badiiy san`at- tajohil ul-orif ( arabcha – bilib-bilmaslikka olish ). Bunda ko`pincha mumtoz she'riyatimizda, qisman hozirgi nazmda ham qo`llanilgan badiiy san`at, shoir keltirilgan voqea-hodisa, holatlarni bilib turadi, ammo bilmaslikka oladi, baytdagi labning shirinligidan yopishib qolmasligi aniq, lekin uni bilib-turib qayta so`raydi.

Chayqalib go`yo tushar hayvon zuloli uzra mavj,

Iztirob ichra yuzungga solsa chin nogoh g`azab.

Tarjimasi: Agar yor yuzi g`azab tufayli chimirilsa ,bu go`yoki suv ustidagi chayqalayotgan to`lqinlarning chaqalishiga o`xshaydi. Bunda tamsil san`ati qo`llangan. Tamsil (arabcha – misol keltirish) – baytning birinchi misrasida ma`lum bir holat ifodalanadi va keyingi misrada unga muvofiq hayotiy misol keltirilgan bo`ladi . Baytdagi yorning yuzidagi chimirilish vaziyati dengizdagi to`lqinlarning chayqalishiga muqoyasa qilingan , holbuki , hayotda dengizda to`lqinlar muayyan chiziqlar asosida chayqaladi .Keyingi qatnashgan she'riy san`at tashbehdir. Tashbeh ( arabcha – o`xshatish) – nazmiy va nasriy asar tilida ko`p qo`llaniladigan ma`naviy san`atlardan biri. Tashbeh ikki yoki undan ortiq narsa , hodisa , xususiyatlarni ular o`rtasidagi o`xshashlik , umumiylik (sifat , belgi yoki funksiya) nuqtai nazaridan qiyoslash . Baytda yorning yuzidagi chimirilishdan hosil bo`lgan chiziqlar dengizdagi chayqalgan to`lqinlarga o`xshatilgan.

Ko`hi dard ichra meni Farhod agar qilding xitob,



Chun seni dermen chuchuk jonim erur Shirin laqab.

Tarjimasi: Dard tog'i ichra meni Farhodga qiyos qiladigan bo'lsang, men ham seni Shirin deb atayman. Misralarda talmeh she'riy san'atining go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Talmeh (arabcha – nazar solmoq, ishora qilmoq) she'rda mashhur qissa, mashhur bayt yoxud mashhur maqol, mashhur tarixiy shaxs, tarixiy joy nomlariga ishora qilish usuli. Baytdagi Farhod va Shirin mashhur tarixiy shaxs va ular talmehni hosil qiladi. Shuningdek, oshiq o'zini Farhodga, yorini esa Shiringa o'xshatib, tashbeh san'atidan ham foydalanmoqda. Farhod va Shirin so'zlari tanosubni ham tashkil etmoqda.

Buki ko'nglumni iting tishlarda og'zin qochurur,

Yo o'ti yoxud aning islang'ani erkin sabab.

Tarjimasi: Yorim iti mening ko'nglimni tishlamoqchi, ammo u og'zini olib qochadi, bunga sabab ko'nglim o'ti ta'siridan yo uning hidlanganidan bo'lsa kerak. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, baytda husni ta'lil, tanosub kabi san'atlar qatnashgan. Bundan tashqari, mubolag'a badiiy san'atining ham yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin. Mubolag'a (arabcha – bo'rttirish) misralarda keltirilgan muayyan holatlar, vaziyatga nisabtan hayot mantig'iga mos kelmaydigan fikr keltiriladi. Baytdagi "Ko'ngil olovidan itning uni tishlay olmaslik" hodisasi mubolag'a bo'ladi.

Ishq komil elni yo Farhod, yo Majnun qilur,

Gar erur ma'shuqi yoxud armaniy yoxud arab.

Tarjimasi: Yor xoh arman, xoh arab bo'lsin, buning farqi yo'q, chunki kamolotga erishgan muhabbat insonni yo Farhod, yo Majnun qiladi. Baytdagi Farhod, Majnun timsollari talmehni, arab, arman so'zlari esa tanosubni hosil qilgan. Shu bilan birga, asosdosh so'zlardan foydalanish she'riy san'ati hisoblangan ishtiyoq badiiy san'ati ham ishtirok etgan. Ishtiyoq (arabcha – so'zdan so'zni ajratmoq) - ma'lum bir asosdan yasalgan



yangi bir soʻzlar va ularning bir-biriga maʼnaviy bogʻliqligi tushuniladi, bu holat tilshunoslikdagi asosdosh soʻzlar hodisasiga muvofiq keladi. Bu yerdagi “ishq” va “maʼshuqa” soʻzlari ishtiyoq, negaki maʼshuqa soʻzi ishq soʻzidan yasalgan hamda bu soʻzlarda maʼno yaqinligi mavjud. Shuningdek, baytda taʼdid sanʼatining qatnashuvini koʻrishimiz mumkin. Taʼdid (arabcha – fikriy rivoj, ketma-ketlik) – sanalayotgan, yaʼni uyushiq boʻlaklar asosida soʻzlarning bir-biriga vazndosh, ohangdosh, qofiyadosh boʻlib qoʻllanilishi. Baytdagi “ Yo Farhod, yo Majnun “ hamda “ Yoxud armaniy, yoxud arab” kabi birliklar ushbu sheʼriy sanʼatni hosil qilgan.

Eyki, faqr ichra qadam qoʻyding talab vodiysigʻa,

Boʻlmasa tolib sanga matlub, sud etmas talab.

Tarjimasi : Ey faqirlik xohlab, talab vodiysiga qadam qoʻydingki, agar xohlayotgan yoring senga moyillik, mayl bildirmasa, unda talabingdan foyda yoʻq. Baytdagi talab, tolib, matlub soʻzlari ham tanosub, ham ishtiyoq sanʼatining dalilidir hamda takrir badiiy sanʼati ham mavjudligini koʻrishimiz mumkin. Takrir (arabcha – takrorlash) – soʻzlar takroriga asoslangan sanʼat boʻlib, takrorga tayangan sheʼriy sanʼat. Misralardagi talab soʻzining ikki oʻrinda ishlatilganligini koʻrishimiz mumkin va bu takrir sanʼati “ hosili “ sanaladi.

Shah xarimida necha topsang, Navoiy, ehtirom,

Bilgil oʻz haddingni -yu behad rioyat qil adab.

Tarjimasi: Ey Navoiy, shoh dargohida qanchalik hurmat-ehtiromga ega boʻlsang ham, haddingni bilgin va odob qoidalariga amal qil. Baytdagi shoh va haram soʻzi tanosubni, had va behad soʻzlari ishtiyoqni yuzaga chiqargan. Shuningdek, nido sanʼati ham ishtirok etgan. Nido – muayyan bir shaxs, narsa yoki voqea – hodisaga murojaat qilinish



anglashiladi, u tilshunoslidagi undalma tushunchasiga mos keladi. Bu yerda Navoiy o`ziga murojaat etib, nido san`atini vujudga keltirgan.

Demak, g`azalni tahlil qilishda uning poetik sintaksisi eng muhim ahamiyatga molik qismlardan biri sifatida e`tirof etiladi, shuningdek, undagi qatnashgan badiiy san`atlar uning bo`yoqdorligini, tasviriyligini va jilokorligini ta`min etadi va bu san`atlar lirik asarning “qaymog`” ini yuzaga chiqaradi. Asar yorga atab yozilgandek ko`rinsa-da, aslida, u Allohga bo`lgan ishqning go`zal ifodasi sanaladi. Ayniqsa, maqtadagi didaktik ruh - eng oliy hikmat namunasi, unda insonning qanchalik hurmati yuqori bo`lsa ham, hech qachon kibrlanib, mansiramasligi hamda inson doimo o`z o`rnini bilishi, axloq qoidalariga rioya qilishi kerakligini uqtirib o`tgan. Xuolsa qilib aytganda, ushbu g`azal nafaqat o`sha davr uchun, balki bugungi kun uchun ham o`z mohiyini saqlab qolishga muvaffaq bo`lgan. Alisher Navoiy asarlari o`zining boy mazmuni, chuqur falsafiy va axloqiy dunyoqarashi, betakror she`riyatining go`zalligi bilan qadrlanadigan va yuksak baholangan merosdir. Uning g`azallarini nafaqat o`qib, balki ma`nosini anglab, uqib olishimiz darkor, shoirning asarlari boqiy va bardavom yashagay, albatta. Zero, ulug` adibning qalamidan to`kilgan ushbu asar adabiyot xazinasining go`zal la`l-u javohiridir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. To`xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O`zbekiston nashriyoti.Toshkent-2002.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.
3. A.Husayni . Badoyi`u-s-sanoyi` , 132-bet , Cho`lpon nashriyoti . Toshkent – 2000.
4. Yo . Is`hoqov . Husni ta`lil. O`zbek tili va adabiyoti , 1971 , 1-son , 72- bet.